

**«Dori-Darmon» aksiyadorlik kompaniyasi 2017 yil 3-chorak yakunlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari.**

Moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishi:

Kompaniya boshqaruv raisi A.Kamilov so'zga chiqib, 2017 yil 9 oylik moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari qo'yidagilardan iborat:

- tovar aylanmasi - biznes reja bo'yicha (keyingi matnlarda "reja" deb yuritiladi) 229 000,0 mln. so'm, amalda – 237 074,84 mln. so'm, rejaga nisbatan bajarilishi 103,5 foiz;

- jami daromadlar - reja bo'yicha 111 275,0 mln. so'm, amalda – 81 710,98 mln. so'm, rejaga nisbatan 73,4 foiz;

- jami xarajatlar - reja bo'yicha – 85 202,5 mln. so'm, amalda – 66 149,757 mln. so'm, rejaga nisbatan 77,6 foiz;

- olingan sof foyda – reja bo'yicha – 26 072,5 mln. so'm, amalda – 15 561,23 mln. so'm, rejaga nisbatan – 59,7 foiz.

Shuningdek, O'zbekiston Respubikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil

28 iyuldagi "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-sonli Qaroriga asosan, Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari aniqlanib, 2017 yil 9 oylik yakunlari bo'yicha mazkur ko'rsatkichlar Kompaniyada 114,84% ni (qo'shimcha ko'rsatkichlar 132,39%) tashkil etganligi ma'lum qilindi.

Boshqaruv raisi o'z so'zida davom etib, Kompaniya va uning tizimidagi jamiyatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Hukumat qarorlari va topshiriqlari ijrosi bo'yicha ham hisobot berdi.

Yig'ilish kun tartibidagi 2017 yil 9 oylik moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakunlari bo'yicha Boshqaruv raisining hisoboti qatnashchilar tomonidan muhokama qilingandan so'ng, majlis raisi hisobotni tasdiqlash uchun ovoz berishlarini so'radi.

Muhokamadan so'ng qo'yidagi masala ovozga qo'yildi:

Kompaniyaga belgilangan biznes-rejaning asosiy ko'rsatkichlari 2017 yil 9 oylik moliyaviy-xo'jalik faoliyati yakuni bo'yicha «DORI-DARMON» AK Boshqaruvi faoliyati qoniqarli deb topilsin.